

BOTULIZM KASALLIGI VA UNING PROFILAKTIKASI

Ikromova Ozoda Ilhom qizi

Zarafshon Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: bu maqola botulizm kasalligi va uning kelib chiqish sabablari, kasallikning inson tanasida kechishi va uning asoratlari va bu kasallikning profilaktikasi haqida ma'lumotlar beradi. Maqola botulizm bakteriyalari va ularning toksinlari natijasida yuzaga keladigan xavfli asoratlarni xalq orasida oldini olish, bartaraf qilish hamda aholi orasida tibbiy savodxonlikni oshirishga imkoniyatlar yaratadi

Kalit so'zlar: Clostridium botulinum, ptoz, anizokoriya, diplopiya, disfagiya, dizatriya, spora, ekskrement, botulotoksin, dispeptik, oftalmoplegik

Botulizm qo'zg'atuvchisi – Clostridium botulinum hisoblanadi. U tayoqchasimon shaklda bo'lib 0,6-0,9mkm kattalikka ega. Xivchinlari mavjudligi tufayli harakatchan, qat'iy anaerob (faqat kislorod bo'lmagan muhitda o'sadi). Uning 7 ta serologik turlari farq qilinadi – A,B,C,D,E,F va G. Odam uchun A,B va E turlari ayniqsa xavfli hisoblanadi.

Botulizmda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar hamda baliqlar infeksiya manbai hisoblanadi. Hayvonlar ichagidan kasallik qo'zg'atuvchisi ekskrementlar (najas, siydik) orqali tuproq va suvga tushadi, u yerdan sporalarga aylanib, uzoq vaqt saqlanadi. Botulizm kasalligining vegetativ shakllari sporalari bilan barcha qishloq xo'jaligi hamda ozoq-ovqat sanoati mahsulotlari: kolbasa, dudlangan go'sht, go'shtli va baliqli hamda sabzavotli konservalar ifloslanishi mumkin. Odatda qo'zg'

atuvchining o'zi odamda kasallik chaqirmaydi. Zaharlanish vujudga kelishi uchun oziq ovqat mahsulotlarida qo'zg'atuvchi ko'payishi va botulotoksin hosil qilishi kerak. Konserva bankalari ichida anaerob sharoit bo'lganligi sababli 11egetati sporalari tezda 11egetative shaklga aylanib, ko'paya boshlaydi va ekzotoksin chiqaradi. Konserva bankasida 11egetati toksini bo'lsa, odatda banka qopqog'I ko'pchib, ko'tarilib qoladi.

Kasallikning yashirin davri 6—24 soat, kamdan-kam hollarda 6—10 kun gacha cho'zilishi mumkin. Organizmga qancha ko'p toksin kirsam kasallikning yashirin davri shunqam qisqam bo'ladi va kasallik og'ir kechadi. Botulizm ko'pincham o'tkir boshlanadi va bir necham asosiy belgilar infeksiyam—toksik, dispeptik, oftalmoplegik, bulbar, miostenik belgilar bilan kechadi.

I variant. Dispeptik buzilishlar: bundam ko'ngil aynish, qusish, epigastral sohada tortishuvcham og'riqlar, meteorizm, og'iz qurishi, kuchli chanqash, kasallik boshidam yumshaygan najas, keyinchalik ichak tutilishi bilan almashinadi. Kasallikning ertam belgilaridan birim bu yutinishning buzilishidir(disfogiya). Bundam bemor xalqumdam katta “kesak” borligigam va yutinish harakatidam og'riqqam shikoyat qiladi.

II variant. Ko'rishning buzilishi: bundam bemorlarko'z oldim xiralashuvigam shikoyat qiladi. Keyinchalik narsalar ikkitam bo'lib ko'rinadi(diplopiya). Qovoqlarim osilib qolib ular ko'tarilmaydi(ptoz). Ko'z qorachiqleari kengayadi: ko'pincham bir ko'zning qorachig'I ikkinchisinikidan kattaroq(anizokoriya)sodir bo'ladi

III variant. Nafas buzilishlari: bundam havom etishmaslik hissi, ko'krak qafasidam og'irlik hissi, ko'krak qafasidam og'rik, tovush tembrining o'zgarishim kuzatiladi. Nafas buzilishlari ko'pincham yutinish buzilishlari vam umumiy zaharlanish simptomlari bilan kechadi, harorat normal yoki subfebril darajadam bo'ladi vam bemordam tezdam mionevrologik belgilar rivojlanadi.

Profilaktikasi. Ko'pginam davlatlardam, jumladam bizning mamlakatdam ham aksariyat hollardam kasallik uy sharoitidam tayyorlangan maxsulotlar (konserva vam dudlangan) iste'molidam so'ng yuzagam keladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun oziq-ovqat

mahsulotlarini qo'zg'atuvchi sporalari bilan ifloslanishdan saqlash, qo'zg'atuvchi sporasi, 12egetative shaklini o'ldiruvchi va zaharini parchalovchi termik ishlov berish, tayyor mahsulotda spora tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Kolbasa, konserva tayyorlash, masalliqalari tuzlash, quritish jarayonida sanitariya-gigiena qoidalariga etibor berish kerak. Qopqog'I ko'pchigan konservalarni istemol qilmaslik va ularni yo'qotish lozim. Konserva eb kasallangan va kasallanmagan kishilarga proflaktika maqsadida 1500- 2000 XB dan botulizmga qarehi zardob yuboriladi. Ular 10-12 kun vrach nazoratida bo'lishlari shart. Botulotoksin bilan aloqador laboratoriya xizmatidagi xodimlar botulizmga qarshi emlanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" M.D. Axmedova, A.R. Obloqulov, S.N. Boboxomayev-2008
2. Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya E.I Musaboyev, A.Q.Bayjanov-2017
Internet saytlari
1. WWW.Google.uz
2. WWW.Arxiv .uz
3. Ziyo.net.uz